



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI

TO'PLAMI
2-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
2-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 368-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

O'tgan asrdan boshlab dunyo iqtisodiyotida bozor raqobatining tobora kuchayib borishi ishlab chiqarish , savdo- sotiq obyektlari, mahsulotlarga nom berish, nomni dunyo brendi darajasiga ko'tarish masalasiga jiddiy yondoshuvlarni taqozo qila boshladi. Mana shu ehtiyoj neyning xizmatining yuzga kelishiga olib keldi va uni kasbiy faoliyat darajasiga ko'tardi. Neyning termini nomlash , nom berishga nisbatan ishlatilsa-da, ma'no doirasi , qo'llanish obyektiga ko'ra o'zbek tilidagi nom so'zidan farq qiladi. O'zbek tilidagi nom so'zi borliqdagi har qanday narsa – predmet , voqea-hodisa , belgi-harakat, miqdor kabilarga nisbatan ishlatiluvchi so'z bo'lsa, neyning faqat tashkilot , firmalar , ishlab chiqarish va savdo –sotiq obyektlari , mahsulotlar, ularning markasi (brendi) nomlarini qamrab oluvchi birlik ekanligi xarakterlidir. Bu termin zamonaviy marketologiyada aynan shu ishlatilmoqda va bugungi kunda ishlab chiqarish va savdo- sotiq obyektlari , mahsulotlarni nomlashning lingvistik jihatlarini o'rganuvchi faoliyat turiga nisbatan qo'llanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bizning fikrimizcha, ergonimika neyningga nisbatan ancha keng qamrovli tushuncha bo'lib , neyning terminini bemalol ergonimlarga kiritib , uning bir yo'nalishi sifatida o'rgansak , maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zbek tilidagi ergonimlar nafaqat iqtisodiy faoliyatni ifodalashda , balki, milliy qadriyatlarni saqlashda, tarixiy va madaniy merosni targ'ib qilishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ergonimlarni tahlil qilish tilshunoslik nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muyassar Saparniyozova “ O'zbek tili ergonimlarining struktur- semantik , lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi” . avtoref. Toshkent - 2023
2. Alistanova F. Эргонимы современного русского языка как микросистема
Автореф дисс канд филол наук – Махачкала 2011- с 9
3. Lutfullayeva D, Saparniyozova M. O'zbek tilida nom yaratishning lingvistik asoslari // Ilm sarchashmalari. – Urganch , 2019. – N 11.- B – 55
4. Крюкова И. В. Рекламное имя, рождение, узуализация, восприятие. Учеб. Пособие.- Волгоград , 2004 . – С. 228

ZAMONAVIY JAMIYATDA IQTISODIY QADRIYATLAR VA OILA BARQARORLIGI

Ortiqov Olimjon Xamidovich

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

olimortiqov798@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy oilalarda iqtisodiy qadriyatlar ijtimoiy mas'uliyatni tushunishga va amalga oshirishga yordam beradi. Oila a'zolari o'z jamiyatlariga yordam berish, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish va o'z atrofidagi muhitni yaxshilashga intilishadi. Mustaqil iqtisodiy holat oilada ijobiy muhitni shakllantiradi, bu esa ma'naviy qadriyatlarga e'tiborni oshiradi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy qadriyatlar, oila byudjeti, iqtisodiy mustaqillik, oila farovonligi, jamiyat taraqqiyoti, oila va iqtisodiy mas'uliyat, iqtisodiy barqarorlik, oila

roli jamiyatda, qadriyatlar tizimi, barqaror rivojlanish, ta'lim va o'z-o'zini rivojlantirish.

Bugungi globallashuv va axborot asrida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'plab omillarga bog'liq. Ularning eng muhimlaridan biri — oilaning iqtisodiy barqarorligidir. Oila — jamiyatning tayanch hujayrasi bo'lib, undagi iqtisodiy qadriyatlar, moliyaviy madaniyat va mas'uliyat darajasi butun jamiyatning farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, zamonaviy jamiyatda iqtisodiy qadriyatlarni shakllantirish, ularni oilaviy hayotga tadbqiq etish va bu orqali barqarorlikka erishish dolzarb masalalardan biridir. Iqtisodiy qadriyatlar tushunchasi va ularning ahamiyati hususida fikr yuritish bugunning muhim qadriyati deyish mumkin. Insonlar va oilalar tomonidan moddiy ne'matlarni yaratish, saqlash, taqsimlash va sarflashdagi qarashlar, e'tiqodlar, urf-odatlar tushuniladi. Bu qadriyatlar moliyaviy mas'uliyat, tejamkorlik, mehnatsevarlik, halollik kabi fazilatlarni o'z ichiga oladi. Odamlar iqtisodiy qadriyatlarga amal qilsa, ular o'zining ijtimoiy va moddiy ahvolini yaxshilaydi, ortiqcha isrofgarchilikdan saqlanadi va kelajakka ishonch bilan qaraydi. Ayniqsa, oilada bu qadriyatlarning mavjudligi bolalarning moliyaviy savodxonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy oilada iqtisodiy qadriyatlar oila hayoti va uning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy qadriyatlar oilaning moliyaviy barqarorligini, ta'lim darajasini, ijtimoiy mas'uliyatni va o'zaro munosabatlarni shakllantiradi. Ushbu maqolada zamonaviy oilada iqtisodiy qadriyatlarning roli, ularning ahamiyati va ta'sirini muhim va ahamiyatlidir. Moliyaviy barqarorlik zamonaviy oilaning asosiy tamoyillaridan biridir. Oila a'zolari o'z daromadlarini samarali boshqarish, xarajatlarni rejalashtirish va investitsiya qilish orqali moliyaviy ahvolini yaxshilashga harakat qilishadi. Bu, nafaqat hozirgi davrda, balki kelajakda ham farovonlikni ta'minlaydi.

- Byudjetni boshqarish: Oila byudjetini rejalashtirish xarajatlarni nazorat qilishga yordam beradi. Oila a'zolari o'z xarajatlarini maqsadga muvofiq belgilab, iqtisodiy jihatdan barqaror bo'lish imkoniyatini oshiradi.

- Jamg'arma va investitsiya: Oila jamg'armalarini ko'paytirish va investitsiya qilish orqali kelajakdagi moliyaviy muammolarni oldini olishga intiladi.

Ta'lim va o'z-o'zini rivojlantirish.

Zamonaviy oilalarda ta'lim iqtisodiy qadriyatlar bilan bevosita bog'liq. Oila a'zolari o'z malakalarini oshirish va ta'lim olishga intilishi, ularning ish bilan ta'minlanishi va moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi.

- Ta'limga e'tibor: Oila ichida ta'limga qaratilgan e'tibor nafaqat bolalarning, balki kattalarning ham o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatlarini oshiradi.

- Professional rivojlanish: Iqtisodiy qadriyatlar professional o'sishni qo'llab-quvvatlaydi. Oila a'zolari yangi ko'nikmalarni o'rganish va mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishga harakat qiladilar.

Zamonaviy oilalarda iqtisodiy qadriyatlar ijtimoiy mas'uliyatni tushunishga va amalga oshirishga yordam beradi. Oila a'zolari o'z jamiyatlariga yordam berish, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish va o'z atrofidagi muhitni yaxshilashga intilishadi.

- Jamoat ishtiroki: Oila ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda, jamiyatdagi muammolarni hal qilishga yordam beradi.

- Farzandlarga tarbiya: Ijtimoiy mas'uliyat qadriyatlarini farzandlarga o'rgatish, ularni ham jamoat, ham iqtisodiy hayotda faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

Zamonaviy oilalarda iqtisodiy qadriyatlar o'zaro yordam va hamkorlikni rag'batlantiradi. Bu, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash va umumiy maqsadlarga erishish uchun muhimdir.

- Oila ichidagi hamkorlik: Har bir a'zo o'z hissasini qo'shish orqali oilaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi. Bu, har bir a'zoning o'z vazifasini bilishiga va shunga mos harakat qilishiga olib keladi.

- Maqsadli ishlar: Oila a'zolari birgalikda maqsadlarni belgilab, ularga erishish uchun hamkorlikda ishlashadi. Bu, iqtisodiy jihatdan barqaror bo'lishga yordam beradi.

Oila barqaror bo'lsa — jamiyat ham barqaror bo'ladi. Chunki sog'lom, iqtisodiy jihatdan o'zini ta'minlay oladigan oilalar ijtimoiy tangliklar, qashshoqlik, ishsizlik va boshqa muammolarning oldini oladi. Bundan tashqari:

- Iqtisodiy savodxon oilalar tadbirkorlik bilan shug'ullanish orqali jamiyatga hissa qo'shadi;

- Oila a'zolari moliyaviy mustaqillikka ega bo'lib, davlatga ortiqcha yuk bo'lmaydi;

- Farzandlar iqtisodiy qadriyatlar asosida tarbiyalansa, ular kelajakda jamiyat uchun foydali fuqaro bo'lib yetishadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy jamiyatda iqtisodiy qadriyatlar nafaqat oilaning, balki butun jamiyatning barqarorligini ta'minlovchi muhim omildir. Oila a'zolari o'z hayotida iqtisodiy ongini, tejamkorlikni, moliyaviy intizomni shakllantirsa, bu ularning farovonligiga, jamiyatda ijtimoiy adolat va taraqqiyotning qaror topishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham, bugungi kunda nafaqat iqtisodiy bilimlarni o'rgatish, balki iqtisodiy qadriyatlarni shakllantirish orqali sog'lom jamiyat poydevorini yaratish muhim vazifa sifatida qaralishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yaqubova, N. U. qizi, Mustafoqulova, M. T. qizi. (2024). *Zamonaviy oila tushunchasi, oilaning jamiyatda tutgan o'rni vazifasi va ahamiyati*. Образование наука и инновационные идеи в мире, 46(8), 87–92.

2. Nabiyeva, N. D. (2023). Zamonaviy jamiyatda oilaviy qadriyatlar. *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(19), 294–298".

3. Ortiqov Olimjon. (2024) *Zamonaviy oilada iqtisodiy qadriyatlarning o'rni. Konferensiya Qozog'istoni*,

4. Akhmedova, D. (2020). Oila va jamiyat: Iqtisodiy qadriyatlar - Toshkent: Fan.

5. Jumaniyozova, L. (2019). Zamonaviy oilaning iqtisodiy asoslari - Samarqand: Navro'z.

6. Mustaqimov, R. (2021). Iqtisodiy qadriyatlar va oila rivoji - : O'zbekiston.

7. Xamidov, S. (2018). Oilaviy moliya va iqtisodiy munosabatlar - Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti.